

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA INTERFAOL USULLARNI QO'LLASH OMILLARI

*Sharipova A.M.*

*Respublika ixtisoslashtirilgan dizayn maktabi biologiya fani o'qituvchisi*

*Elektron pochta: azizash\_19@mail.ru*

**Annotatsiya:** Maqolada umumta'lim maktablarida innovatsion texnologiyalar va interfaol usullarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari. Ta'lim samaradorligi va ta'sirchanligini oshirish, o'quvchilarda dars mazmunini teran anglash ko'nikmasini shakllantirish bo'yicha ma'lumotlar mavjud.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, metod, yondashuv, novator, pedagog, o'qituvchi, o'quvchi, innovatsiya, texnologiya, interfaol usul.

### ФАКТОРЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ВУЗАХ

**Аннотация:** В статье рассматривается использование инновационных технологий и интерактивных методов в общеобразовательных школах. Имеется информация о повышении эффективности и результативности обучения, формировании способности учащихся глубоко понимать содержание урока.

**Ключевые слова:** образование, метод, подход, новатор, педагог, учитель, ученик, инновация, технология, интерактивный метод.

### FACTORS OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES AND INTERACTIVE METHODS IN HIGH SCHOOLS

**Annatation:** in the article, the peculiarities of the application of innovative technologies and interactive methods in secondary schools. There is information on improving the effectiveness and effectiveness of education, on the formation of the skill of understanding the content of the lesson in students.

**Key words:** education, method, approach, innovator, educator, teacher, student, innovation, technology, interactive method.

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash va samaradorligini ta'minlash orqali umumta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitish tizimini takomillashtirish darajasi va salohiyati ham zarur. Umumta'lim maktablarida 10-11-sinf o'quvchilariga biologiya fanini o'qitishda ularni innovatsion fikrlashini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.[1]

Ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interfaol usullarni qo'llashga qiziqish tobora keng tus olmoqda. Bunday usullarni qo'llash ta'lim samaradorligi va ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarda dars mazmunini teran anglash ko'nikmasini shakllantiradi. Ta'limning innovatsion metodlari o'quvchilarning ulkan ta'limiy qudratidan foydalanish va faollashtirish, o'quv jarayoniga musobaqa elementlarini kiritish imkonini beradi.[2]

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari - interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir.[3]

Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba o'quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Innovatsiya (inglizcha innovation)-yangilik kiritish, yangilik demakdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.[4]

Interfaol ("Inter" - bu o'zaro, "act" - harakat qilmoq) – o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi. Boshqacha so'z bilan

aytganda, o'qitishning interfaol uslubiyotlari - bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'rni qisman o'quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi.[5]

Ta'lim jarayonida interfaol uslublar innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.[6]

K.Angelevskiy fikricha, "barcha davlatlar ta'limga imkon qadar ko'p yangilik kiritishga intilmoqda. Bugungi yangiliklar ularga uyushgan, rejali, ommaviy yondashuvni talab etadi. Yangiliklar kelajak uchun uzoq muddatli investitsiyalardir. Novatorlikka qiziqish uyg'otish, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta'limning o'zi yangiliklarga boy bo'lishi, unda ijodkorlik ruhi va muhiti hukm surishi lozim".[7]

Innovatsiya ingliz tilidan olingan bo'lib, yangilik yaratish, yangilik kabi ma'noni anglatadi. Demak, an'anaviy ta'limdagi kabi bir xil qoidalar asosida emas, balki yangiliklar asosida ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan ish shaklidan foydalanish innovatsiya demakdir. Ta'limda pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o'quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interfaol uslublardan foydalanish ta'lim maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi.[8]

Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'ilib, ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo'ladi. Shuningdek, umuman ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiya – ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishiga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir.[9]

Ta'lim tizimini innovatsion rivojlantirish O'zbekistonda yoshlarga har tomonlama shart-sharoitlar yaratilib berilayotganligi bilan chambarchas bog'liqdir. O.Muhammadjonovning ta'kidlashicha, “Yosh avlodning har tomonlama barkamol rivojlanishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratish O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab yoshlarning manfaatlariga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Zero, bu kelajakka yo'naltirilgan sarmoya hisoblanadi”.[10]

Ta'lim tizimini innovatsion rivojlantirishda, avvalambor, umumta'lim maktablarini mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatida o'rnini yuksaltirish yuzasidan qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. “Mustaqil milliy ijtimoiy taraqqiyot yangi sifatli bosqichga o'sib o'tishini ta'minlashda moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish jarayonlarini dialektik tarzda uyg'unlashtirishning yana bir usulini innovatsiyalarni iqtisodiyot va ma'naviyat sohasiga joriy etish asosida ularni uyg'un tarzda rivojlantirishni yo'lga qo'yish tashkil etadi. Bu usul yoshlarning mehnat faoliyatini iqtisodiyot va ma'naviyat bilan uyg'un tarzda tashkil etish asosida rivojlantirishning dialektik xususiyatlarini o'zida ifodalagan vositalar orqali ish yuritadi”.[11]

Ta'limda innovatsiyalarni joriy etish uchun o'qituvchi va o'quvchilar ongiga yangicha tafakkurni shakllantirish, zamonaviy fikrlash tarzini oshirish, texnologik g'oyalarni shakllantirish lozim. “Bugungi jamiyatni rivojlantirish uchun voqelikka yangicha rakursdan turib qarash, yangicha, ya'ni innovatsion yondashuv lozim bo'ladi”.[12]

Xulosa innovatsion, ya'ni yangilikka asoslangan texnologiyalar, yangicha boshqaruv jarayonlarini joriy etish uchun yangicha tafakkurga tayanish lozim". Umumta'lim maktablarida fanlardan faqat bilim berish bilan birgalikda, dolzarb ilmiy-texnika muammolarni yechishga jalb etib, innovatsion jarayonlar ishtirokchisiga aylantirishimiz lozim.

#### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Умаралиева М. Инновацион ёндашувлар асосида умумий ўрта таълим муассасалари ўқувчилари касбий компетентлигини ривожлантириш технологияси. Фалсафа доктори (PhD) десс автореферати. –Т.: 2019.: 14-бет.
2. Азизхужаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. Ўқув қўлланма. 2003.
3. Сайидахмедов Н.С. Педагогик маҳорат ва педагогик технология. - Т.:, 2003; Янги педагогик технологиялар: Назария ва амалиёт - Тошкент, «Молия»,
4. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Ҳ. “Инновацион таълим технологиялари ва педагогик компетентлик” модули бўйича ўқув-методик мажмуа. Низомий номидаги ТошДПУ ҳузуридаги Педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази. –Т.:, 2016. 42-б.
5. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. –Т.: “Iste'dod” jamg'armasi, 2008 yil.
6. Педагогические технологии: понятия, принципы и методы внедрения: Сб. материалов из Интернета. Сост. С.Махкамова. – Ташкент, 2003. – С.26.
7. Роджерс Е.М. Представил типологию людей по критерию “отношение к инновации”. 1960 г.
8. Загвязинский В.И. Ўрганиш назарияси: замонавий талқин. - М.: Академия, 2001. - 192 б.
9. Подласый И.П. Как подготовить эффективный урок. – Киев, 1989.
10. Пригожин И.Р. Наука и жизнь. <https://ru.wikipedia.org>
11. Загвязинский В.И. Инновационные процессы в образовании и педагогическая наука. -Тюмень, 1990.
12. Фарберман Б.Л.. Прогрессивные педагогические технологии - Т.:, 1999 г 84 стр; Олий ўқув юртларида уқитишнинг замонавий усуллари», -Т.:,2002; «Илгор педагогик технологиялар», -Т.:, 2000.